

“NKMK” AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi xaqidagi HISOBOT

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, 2023-yil 7-mart kuni rahbariyat tamonidan tasdiqlangan.

Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste’molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari ya’ni Jamiatning [www.ngmk.uz](http://portal.ngmk.uz/index.php?mod=complains/preventCorruption) rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda murojaatlarni yuborish uchun tegishli (ishonch telefoni va elektron pochta) aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirilgan.
[mod=complains/preventCorruption](https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/kombinat-to-g-risida/korrupsiyaga-qarshikurashish/xodimlar-xatti-harakatiga-oid-korrupsiyani-oldini-olish-boyicha-murojaat),
[https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/kombinat-to-g-risida/korrupsiyaga-qarshikurashish/xodimlar-xatti-harakatiga-oid-korrupsiyani-oldini-olish-boyicha-murojaat](https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/ochiq-ma-lumotlar/ommaviy-kommunikatsiyatexnologiyalarining-joriy-qilinishi)
<https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/ochiq-ma-lumotlar/ommaviy-kommunikatsiyatexnologiyalarining-joriy-qilinishi>
<https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/aloqalar/fuqarolarni-qabul-qilish>

Jamiatning [www.ngmk.uz](https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/aloqalar/interaktiv-xizmatlar/narxlar) rasmiy veb-saytida jamiyat tamonidan ko‘rsatiladigan (ishlar, xizmatlar) elektr energiya va kommunal xizmatlari narxnavolari doimiy joylashtirilmoqda. (<https://www.ngmk.uz/uz/home/blog/aloqalar/interaktiv-xizmatlar/narxlar>)

Jamiyat tabiiy monopoliyalar subyektlari reyestriga kiritilgan bo‘lib, 2023-yil 5-apreldagi 69-sonli farmoyishiga asosan Shimoliy, Markaziy kon boshqarmasida, 10-avgustdagi 186-sonli farmoyishga asosan “NMZ” ishlab chiqorish birlashmasi va “1-GMZ” kon boshqarmalarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan ya’ni viloyat Moliya boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida (ishlar, xizmatlar) ichimlik suv, texnik suv va kanalizatsiya xizmatlari bo‘yicha hisob-kitob materiallari o‘rganib chiqildi.

O‘rganishda (ishlar, xizmatlar) ichimlik suv, texnik suv va kanalizatsiya xizmatlari bo‘yicha qo‘llanilgan narxlar va tariflarning amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan tasdiqlangan narxlardan oshmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Joriy yilning o‘tgan davri davomida Jamiat ishchi-xodimlari orasida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari va korrupsiyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha **83 marotaba** o‘quv seminarlari tashkil etildi va **5 394 nafar** ishchi-xodimlar ishtirok etishi ta’minlandi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha korxona ishchi-xodimlari uchun “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri 22-noyabr kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda “NKMK” Komplayens xizmati boshlig‘i o‘rinbosari B.Toshev, Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari M.Elmurodovlarning mavzuga oid ma’ruzalari tinglandi.

O‘tkazilgan tadbir Navoiy televideniyesi, “O‘zA” Milliy axborot agentligi rasmiy saytida va Jamiatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portali, telegram kanalida yoritildi.

“NKMK” AJning 2023-yil 20-noyabrdagi 674-sonli buyrug‘iga asosan Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Komplayens xizmatining Nizomida va xodimlarning lavozim yo‘riqnomasida Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlash samaradorligini tashkil etish, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilishi, raqobat cheklarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlashi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi ko‘rsatilgan.

“NKMK” AJning 2023-yil 20-noyabrdagi 674-sonli buyrug‘iga asosan Jamiatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida Komplayens xizmati shu’ba boshlig‘i A.Bozorov va ma’sul xodim U.Mo‘minovlar ma’sul etib belgilandi.

**Komplayens xizmati boshlig‘i
2023-yil 14-dekabr**

R.F.Avezov